

«Doimiy» tariflar tizimi

Narxlash

| Tarif rejasining nomi | Doimiy Start | Doimiy Plus | Doimiy Extra | Doimiy Extra Plus | Doimiy Ultra | Doimiy Ultra Plus | Doimiy Max | Yangi Doimiy Max | Doimiy 100 | Doimiy 150 |
|---|---|--|-----------------------|---|---|---|--|--|--|--|
| Oylik abonent to'lovi | 34 000 so'm | 40 000 so'm | 50 000 so'm | 50 000 so'm | 55 000 so'm | 60 000 so'm | 75 000 so'm | 75 000 so'm | 100 000 so'm | 150 000 so'm |
| Cheksiz* oylik internet-trafik | Facebook Instagram | - | Facebook Instagram | - | Telegram WhatsApp Facebook Instagram | - | YouTube Telegram WhatsApp Facebook Instagram | - | YouTube Telegram WhatsApp Facebook Instagram | YouTube Telegram WhatsApp Facebook Instagram |
| Oylik internet-trafik limiti | 15 GB | 20 GB va 10 GB Facebook va Instagram uchun | 30 GB | 25 GB, 12 GB Facebook va Instagram uchun | 25 GB | 30 GB, 22 GB Telegram WhatsApp Facebook Instagram uchun | 45 GB | 45 GB, 40 GB Telegram WhatsApp Facebook Instagram uchun | 100 GB | 200 GB |
| O'zbekiston bo'yicha chiquvchi qo'ng'iroqlarning oylik limiti | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** | Cheksiz** |
| O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti | 500 | 500 | 1 000 | 1000 | 1500 | 1500 | 2 000 | 2000 | 2 500 | 3 000 |
| Limitlarni tekshirish | *100# - daqiqalar va SMSlar, internet-trafik MBlari | | | | | | | | | |

** Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.

(Resurslar – YouTube, Instagram, Facebook, Telegram, WhatsApp)

2026-yil 3-fevraldan boshlab «Doimiy Start» va «Doimiy Plus» tarif rejaları bo'yicha oylik abonent to'lovi mos ravishda 34 000 va 40 000 so'mni tashkil etadi. Shu bilan birga, o'zgartirishlar kiritilgan sanada 55 yoshdan katta ayollar va 60 yoshdan katta erkak abonentlar uchun «Doimiy Start» tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi 29 000 so'm, «Doimiy Plus» tarif rejasi bo'yicha esa 35 000 so'm miqdorida saqlanib qoladi.

2026-yil 9-apreldan boshlab «Doimiy Extra» va «Doimiy Extra Plus» tarif rejalarining oylik abonent to'lovi 50 000 so'mni tashkil etadi. Bunda, o'zgarish kiritilgan sanadagi 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar uchun mazkur tarif rejalarida abonent to'lovi 45 000 so'm miqdorida saqlanib qoladi.

| Yo'nalishlar bo'yicha narxlash: | | |
|---|--|---|
| | Doimiy Start, Doimiy Plus, Doimiy Extra, Doimiy Extra Plus | Doimiy Ultra, Doimiy Ultra Plus, Doimiy Max, Yangi Doimiy Max, Doimiy 100, Doimiy 150 |
| Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo'ng'iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari) | 50 so'm | 25 so'm |
| 1 MB internet narxi | 50 so'm | 25 so'm |
| O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari) | 50 so'm | 25 so'm |
| Xalqaro SMSlar | 1500 so'm | |

Limitlarni tekshirish: *100# - daqiqalar, SMSlar va internet-trafik MBlari.

Eslatma:

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan intrenet-to'plamdan sarflanadi.

Qo'shimcha ma'lumot

1. Tarif rejalarida yangi ulanishlarga hamda abonentlari o'tishlari uchun ochiq emas, Prepaid tizimida.

2. Oylik abonent to'lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish/o'tish sanasi oylik davrda oylik abonent to'lovining yechilish sanasi hisoblanadi.

- Tarif rejasiga yangi ulanishda/o'tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag' bo'lsa, oylik abonent to'lovi va limitlar to'liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.

- Hisob manfiy holatda bo'lsa yoki unda tarif bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.

- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanada amalga oshgan bo'lsa, keyingi oy esa 30 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, fevral oyining 28/29-sanada yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda bo'lib tursa), abonent to'lovining keyingi yechilish sanasi oyning 31-kuni bo'ladi).

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmagunicha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi **darhol** yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi **so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab** bir oylik oraliqda amalga oshadi.

3. YouTube, Telegram, WhatsApp, Facebook, Instagram resurslari uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari:

- Tarif rejasini almashtirganda, cheksiz internet-trafikka ega bo'lgan tegishli yo'nalish belgilanadi:

| Tarif | Cheksiz internet-trafik (resurslar) |
|--------------|-------------------------------------|
| Doimiy Start | Instagram va Facebook |

| | |
|--------------|--|
| Doimiy Extra | Instagram va Facebook |
| Doimiy Ultra | Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook |
| Doimiy Max | YouTube, Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook |
| Doimiy 100 | YouTube, Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook |
| Doimiy 150 | YouTube, Telegram, WhatsApp, Instagram va Facebook |

- Tarif rejasi doirasidagi resurslar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi;
- Tarif rejasi doirasidagi resurslar uchun taqdim etiluvchi internet-trafik shartlari Postpaid tizimi abonentlariga tatbiq etilmaydi;
- Tarif bo'yicha taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) doirasidagi trafik Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va YouTube mobil ilovalarining yuklab olinishiga va yangilanishiga tatbiq etilmaydi;
- Telegram, Instagram va WhatsApp ilovasi orqali audio/videoqo'ng'iroq qilganda tarif bo'yicha yo'nalishlar doirasida taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet-to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi;
- Facebook Messenger ilovasi orqali audio/videoqo'ng'iroq qilganda tarif bo'yicha yo'nalishlar doirasida taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) emas, balki tarif rejasida berilgan umumiy limit yoki internet to'plamlar doirasidagi internet-trafik sarflanadi;
- «Doimiy» tizimi tarif rejalaridan «Internet 60» tarifga o'tilsa, tarif rejasi bo'yicha belgilangan resurslar (internet-trafik opsiyasi) o'chiriladi;

4. Bloklanish shartlari:

- **JONLI NOL!** Nol hisobda barcha aloqa xizmatlari amal qiladi ***

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi;
 - Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;
 - Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.
 - Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaganigacha qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa);
 - Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.
- (***abonent to'lovi samarali yechilganidan so'ng)

5. Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasi shartlariga ko'ra oylik limitlar belgilangan kundan boshlab 1 oy muddatga taqdim etiladi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari faqat abonent to'lovi **o'z vaqtida to'lansagina** navbatdagi bitta davrga ko'chirib o'tkaziladi. Oldingi davrdan ko'chirib o'tkazilgan oylik limitlarning qoldiqlari **faqat** joriy oyning oxirigacha amal qiladi.

- Agarda oylik abonent to'lovi o'z vaqtida yechilmasa, u holda limitlarning oldingi hisob-kitob davrida ishlatilmay qolgan qoldiqlari bekor qilinadi.
- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.
- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.
- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi barcha yo'nalishlar uchun berilgan oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi: Tarif bo'yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish****
- Tarif rejasini o'zgartirish.

**** Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- «Doimiy» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent yuqoriroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar yangilariga qo'shiladi va toki sarflab tugatilguniga qadar yoki ularning oldingi tarif rejasiga ko'ra amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.
- «Doimiy» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent quyiroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.
- Boshqa tarif rejalaridan "Doimiy" tariflar tizimi tarif rejalariga o'tilsa oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.
- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval *100#, USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida limitlar belgilanganligini albatta oldindan tekshirib olishni so'raymiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanganigacha qadar narxlash limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

6. «Doimiy» tariflar tizimi abonentlari uchun «Qadrdonlar!» hamda «U+» sodiqlik dasturlari amal qiladi.

- «U+» sodiqlik dasturi bo'yicha to'plam faol bo'lganida, resurslar bo'yicha internet-trafik tarif rejasi doirasidagi resurslar uchun taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafik doirasida sarflanadi;

Agar tarif rejasi doirasida resurslar uchun internet-trafik bo'lmasa, sarf tarif rejasi bo'yicha umumiy internet-trafikdan amalga oshiriladi.

7. Tarif rejalarini shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

7.1 "O'zbektelekom" AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi: https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom, (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari narx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom

8. Tarif rejalarini doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

9. «Doimiy» tariflar tizimi abonentlari uchun, «Raqamni saqlab qolish», Yangi internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Tungi internet-to'plamlar», Tunda 4Gni sinab ko'ring, TAS-IX uchun internet-to'plamlar, «Internet Mega BOOM», «Al Chiroq» (faqat MB va SMS to'plamlar) aksiyasi, «Trafik +» amal qiladi.

10. «Doimiy» tariflar tizimi abonentlari uchun «Tungi internet», «Kunlik SMS-to'plamlar» xizmati, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, Oylik 4G internet-to'plamlar (shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi to'plamlar) «Soatbay internet» hamda «Maksimal internet» xizmatlari, «Buyurtma to'plam», «Megabaytlar qaytadi», «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari, «Qulay daqiqalar» amal qilmaydi.

11. "Doimiy" tariflar tizimiga o'tganda, unda ruxsat etilmagan xizmatlar va to'plamlar o'chiriladi (Oylik internet-to'plamlardan tashqari), ammo limitlar qoldiqlari va xizmatlarning amal qilish muddati ularning shartlariga muvofiq saqlanib qoladi;

12. 31.12.2026 gacha:

- **«Doimiy» tizimi tarif rejalariga yangi ulanishda yoki boshqa tariflardan o'tishda, «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmati avtomatik tarzda bepul asosda taqdim etiladi;**
- «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmatiga (oylik va kunlik opsiyada) oldin pulli asosda ulangan abonentlarga mazkur xizmat endi bepul belgilanadi;
- Xizmatni boshqarish *977# USSD-so'rovi yordamida amalga oshiriladi;
- «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmatining faol pulli (oylik va kunlik) opsiyalari, «Barcha uchun ovozli pochta» xizmati o'chiriladi va bepul asosda «Sizga qo'ng'iroq qilishdi» xizmati belgilanadi.

13. "Traffic+" xizmati bo'yicha mavjud bo'lmagan to'plamlar:

- «Trafik+» xizmati bo'yicha «Instagram», «Instagram+YouTube+Telegram», «Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, Vkontakte)» hamda «Instagram+YouTube+Telegram+PUBG Mobile» to'plamlariga **Doimiy Start va Doimiy Extra** tarif rejalarida ulanib bo'lmaydi.
- «Trafik+» xizmati bo'yicha «Instagram», «Instagram+YouTube+Telegram», «Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, Vkontakte)», «Instagram+YouTube+Telegram+PUBG Mobile», «Messenjerlar (Telegram, IMO, WhatsApp, Viber)», «YouTube + Telegram» hamda «YouTube+Telegram+PUBG Mobile» to'plamlariga **Doimiy Ultra** tarif rejasida ulanib bo'lmaydi.

- «Trafik+» xizmati bo'yicha «Instagram», «Instagram+YouTube+Telegram», «Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, V Kontakte)», «Instagram+YouTube+Telegram+PUBG Mobile», «Messenjerlar (Telegram, IMO, WhatsApp, Viber)», «YouTube + Telegram», «YouTube+Telegram+PUBG Mobile» hamda «YouTube» to'plamlariga **Doimiy Max, Doimiy 100 va Doimiy 150** tarif rejalarida ulanib bo'lmaydi.
- «Trafik+» xizmati bo'yicha to'plamlar amal qilmaydigan «Doimiy» tariflar tizimiga o'tilsa, ushbu xizmat bo'yicha to'plam o'chiriladi, limitlar bekor qilinadi.
- 14.** «Doimiy» tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, ko'rsatilgan shartlarga ega bo'lgan tarif rejaları doirasida oldin olingan O'zbekiston bo'yicha cheksiz daqiqalar va cheksiz internet amal qilmaydi.
- 15.** Tegishli tarif rejaları doirasida olingan cheksiz shartlar (qo'ng'iroqlar, internet) tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining o'z vaqtida yechilishi holatida, shuningdek, tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.
- 16.** Tegishli tarif rejaları doirasida olingan ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar uchun oylik internet-trafik limitlari, abonent to'lovining o'z vaqtida yechilishi holatida, shuningdek, tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.
- 17.** Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga [mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi](#) va [4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot](#) bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.
- 18.** Frod ulanishlarining oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

«Restart» xizmatining shartlari

- 1.** «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.
- 2.** «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
- 3.** «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.
- 4.** «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.
- 5.** Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.
- 6.** «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.
- 7.** Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
- 8.** «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.

Eslatma

E'tiboringiz uchun, smartfonlarning ko'pchiligi Internetga ulanganda o'rnatilgan dasturlardan (messenjerlar, ob-havo, yangiliklar va hokazo) uchinchi tomon trafigini ishlatadi, shuningdek, ilovalar do'konlari (Google Play, App Store) bilan sinxronizatsiya hamda turli akkauntlarning (Google, Facebook, Telegram va hokazo) va analitik hisoblagichlar (Google, google-analytics.com, google-tagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net) beixiyor sinxronizatsiyasi amalga oshishi mumkin. Ushbu trafik xizmat doirasida ajratilgan bepul trafik doirasiga kirmaydi va uning haqi tarif uchun Ucell Interneti qiymatiga ko'ra abonent tomonidan alohida to'lanadi yoki sotib olingan to'plamdan sarflanadi.

Diqqat!

- 1** Cheksiz yo'nalish doirasidagi internet-trafikning to'g'ri sarflanishi uchun, faqat rasmiy ilovalarni ishlatishni tavsiya etamiz: Facebook, Instagram, Telegram, WhatsApp va YouTube;
- 2** Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning kirish nuqtasi orqali internetni tarqatishda faqat tarif rejasi doirasida taqdim etilgan asosiy internet-trafikni, yoki qo'shimcha xarid qilingan internet-to'plamdagi trafikni tarqatish mumkin bo'ladi. Tarif rejasi doirasida taqdim etiluvchi resurslar (internet-trafik) shartlari smartfondan internet-trafikni boshqa qurilmalarga tarqatishda amal qilmaydi.
Bunda:
- 3** YouTube, Ijtimoiy tarmoqlarga va messenjerlarga proksi-server, VPN yoki uchinchi saytlar orqali kirishda, trafik tarif rejasi doirasida ajratilgan internet-trafik limitidan yoki barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi, yoxud internet-trafik tarif rejasi shartlari bo'yicha Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi.
- 4** Bunday hollarda resurslar uchun taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafikdan foydalanib bo'lmaydi.

- 5 Messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarning egalari ma'lum IP-manzillar va protokollar doirasida o'z xizmatlarini taqdim etishadi. Ucell aynan o'sha (ro'yxatga kiritilgan) doiradagi manzillar uchun trafik hajmini ajratadi. Messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarning egalari IP-manzillarini yoki protokollarini o'zgartirganlari uchun mas'uliyatni Ucell o'z zimmasiga olmaydi, bu holda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi.

** "Doimiy Ultra", "Doimiy Max", "Doimiy 100", "Doimiy 150" tarif rejalari uchun shartlar: Qo'shimcha resurslar uchun oylik internet-trafik – to'liq tezlikda 2 TB. To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugaganidan so'ng, internet tezligi 64 kb/soniyagacha pasayadi.*

"Doimiy Start", 28.08.2023 dan «Doimiy Extra»: tarif rejalari uchun shartlar:

- Facebook resurslari uchun cheksiz internet-trafik – oyiga to'liq tezlikda 2 TB. To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugaganidan so'ng, internet tezligi 64 kb/soniyagacha pasayadi.

- Instagram resurslari uchun cheksiz internet-trafik – sutkasiga to'liq tezlikda 750 MB (har kuni 00:00dan yangilanadi). To'liq tezlikda taqdim etilgan limit tugaganidan so'ng, internet tezligi 1 mb/soniyagacha pasayadi.